

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.n., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-fevraldagii kengaytirilgan 2-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 2). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023

Trening metodining ustunligi, ishtirokchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qila bilish imkoniyatining mavjudligidadair.

Treninglarni mezoniy yo'nalishlari, ta'sir etish ko'lamiga qarab, quyidagi turlarga bo'lish mumkin: malakaviy, psixoterapevtik, ijtimoiy-psixologik, biznes-trening.

Malakaviy trening ma'lum malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Biznes-trening, masalan, muzakoralar olib borish, o'zini prezentasiya qilish, texnika sotuvi ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Psixoterapevtik trening (qisqacha nomi psixoterapevtik guruh) kishilar ongini o'zgartirishga yo'naltirilgan. Bu guruhlar psixoterapiya yo'nalishlari – psixodramatik, gavda-harakatlar terapiyasi va boshqalarga – mutanosib.

Ijtimoiy-psixologik trening kishilar ongini o'zgartirish hamda malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy-psixologik trening shaxslararo muloqotni ijtimoiy ustanovkalar va ko'nikmalarni o'zgartirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda ushbu metoddan bolalar, ularning ota-onalari bilan, professional guruhlar bilan tashkilot va korxona rahbarlari bilan ishlashda faol foydalaniladi.

Ijtimoiy-psixologik treningning asosiy maqsadi – muloqot kompetentligini oshirishdir. Ushbu metoddan foydalanishda unga o'zgartirishlar kiritish mumkin, lekin uning asosiy maqsadi kishilar muloqati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, ustanovkalarni rivojlantirish, kishilar persektiv qobiliyatlarini shakllantirish, shaxslarning munosabatlar tizimini rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Xulosa.

O'quv faoliyati doirasida quyidagi o'quv vaziyatlaridan foydalanish tasiya etiladi:

- yangi o'quv dasturini (loyihasini) tayyorlashda;
- kichik guruhlarda hamkorlik faoliyatini boshlashda;
- bolalar e'tiborini bir masaladan ikkinchi masalaga ko'chirishda;
- dars yakuni va bolalar charchaganda;
- treninglar, seminarlar va boshqa o'quv tadbirlarini hamda bolalarning guruhdagi faoliyatini boshlashdan avval.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentga Murojaatnomasi. 20.12.2022.
2. Meliqo'zieva, X. Mamajonova, A.Ziyaev "Ta'limning interfaol metodlari vositasida dars o'tish bo'yicha o'qituvchilar uchun tavsiyalar" nomli o'quv uslubiy qo'llanma T-"Fan va texnologiya"2014.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006.
4. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogicheskie osnovy integratsii traditsionnykh i novyx metodov v razvivayushchem obuchenii: uchebnoe posobie / V. I. Zagvyazinskiy; Tyum. gos. un-t. - Tyumen : Izd-vo TyumGU : Kompaniya Mir, 2008.
5. Turakulova Feruza Aminovna Qualified practice and media education. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) Vol.10, Issue 12, Dec. (2022) 1693-1698
6. Aminovna, Feruza Turakulova. "Bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda "Ustoz-shogird" an'anasidan foydalanish tizimini takomillashtirish texnologiyasi." *Ижтимоий фанларда инновация онлайн илмий журналы* (2022): 191-194



TA'LIMDA INNOVATSION USLUBLARNI ISHLAB CHIQUISH HAMDA AMALIYOTGA JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrası o'qituvchisi,

e-mail: allayorovasarvinoz52@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taminlash hamda o'z o'zini rivojlantirish uchun maydon yaratish, mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirish borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, pedagog, talaba, oliy ta'lim, ta'lim shakli, metod, texnologiya, ta'lim me'yorlari

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ И ВНЕДРЕНИЯ НА ПРАКТИКУ

Аллаёрова Сарвиноз Бахтеровна

Чирчикский государственный педагогический университет, преподаватель кафедры

педагогике, e-mail: allayorovasarvinoz52@gmail.com

Аннотация: В данной статье говорится об обеспечении включенности образовательных учреждений в инновационные процессы и создании пространства для саморазвития, видя в существующем инновационном пространстве и, самое главное, осваивая конкретные инновации.

Ключевые слова: образование, инновации, педагог, студент, высшее образование, форма обучения, метод, технология, образовательные стандарты.

THEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE METHODS IN EDUCATION AND IMPLEMENTATION IN PRACTICE

Allayorova Sarvinoz Bakhtiyorovna

Chirchik State Pedagogical University, Teacher of the Department of Pedagogy, e-mail:

allayorovasarvinoz52@gmail.com

Abstract: This article talks about ensuring the inclusion of educational institutions in innovative processes and creating a space for self-development, seeing in the existing innovative space and, most importantly, mastering specific innovations.

Key words: education, innovation, pedagogue, student, higher education, form of education, method, technology, educational standards

Kirish

Bugungi kunda jamiyatimizda bo'layotgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalaridagi o'zgarishlarni kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimiga ham bog'liq ekanligini hisobga olish kerak.

Shuningdek intellektual salohiyatning o'sishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligining oshishiga, shu sohada tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmasdan, mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o'sishiga ham sezilarli darajada ta'sir

etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etib, o'zini yaratish imkoni, mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu innovatsion jarayon ta'lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko'chma ma'noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi. Hayot ta'lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo'lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya'ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni oldimizga maqsad qilib qo'ymoqda.

Barcha yangiliklarga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadigan, o'tmish boyliklarga, tajribalarga e'tiqod ruhida tarbiyalangan, stabillikni yoqtiradigan keksa avlodni, shuningdek hech qanday o'zgarishlarni xoxlamaydigan pedagoglarni ham tushunish mumkin.

Bunday holatda "innovatsion jarayonlar orqasidan quvish" bugungi kunning hayotimizning ajralmas qismi ekanligini ham aytib o'tish lozim. Xohlaymizmi yoki yo'q bizning ta'lim muassasalari devorining orqasida bozor va bozor munosabatlari jarayoni ketayapti. Bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri bizga tegishlidir, chunki ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat tushunchasi ularni raqobat qobiliyati, ta'lim sifati, ijtimoiy buyurtmalar bularning hammasi turmushimizga kirib kelayapti.

Bu jarayon biz yashayotgan muhit, hayot tarzi ekanligini har doim xis etib turishimiz kerak. Bu jarayonga qarshi turish befoyda va havflidir. Biz tanlash imkoniyatiga ega emasmiz va ushbu tezkor jarayonda ishtirok etishga majburiy. Mazkur jarayonda eng muhimi aql bilan, foydali tarzda, o'z tashkilotimiz uchun ishtirok etishdan iborat. Ko'pchilik mutaxassislarning fikriga qaraganda, o'zgarishlarga qobiliyat, bugungi kunda rivojlanishning hal qiluvchi omili, u yoki bu ta'lim muassasalarining raqobat qobiliyatini ta'minlovchi asosiy omil deb hisoblaydilar.

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in-"lik", novus-"yangi") yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi.

"Innovatsion ta'lim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq.

Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;

- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;

- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;

- o'quv-metodik ta'minotiga;

- tarbiyaviy ishlar tizimiga;

- o'quv reja va o'quv dasturlariga;

- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

Yangilik aniq tarixiy xarakterga ega, ya'ni o'z vaqtdan oldin paydo bo'lishi mumkin, o'z vaqtida me'yor bo'lishi yoki eskirishi ham mumkin.

Mamlakatimizda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta'lim oldiga muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. 2006 yil iyul oyida Sankt-Peterburg shahrida "Sakkizlik guruhi" tomonidan Sammitda qabul qilingan "XXI asrda innovatsion jamiyat uchun ta'lim" to'g'risidagi hujjat g'oyalarini yiriklashtirishni hisobga olishni va muammoning yechimini talab etadi.

Hozirgi milliy loyihalar saytida "innovatsion ta'lim" iborasi paydo bo'lmoqda va unda aytilishicha innovatsion ta'lim o'qitishni yangi bilimlarni yaratish jarayonida amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa bugungi kunda mavjud "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" tushunchasi bilan yangi "innovatsion ta'lim" tushunchalarini bir-biridan ajratishni talab etmoqda.

Ta'lim sohasi-mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, A.G.Rivin va V.K.Dyachenko tomonidan o'qitishni jamoaviy o'qitish, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o'qitishning individual yo'nalishli usuli (A.A.Yarulov), "Ekologiya va dialektika" (L.V.Tarasov), evristik o'qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurganov), loyihali o'z-o'zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va b.q.larni keltirish mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan texnologiyalar o'qitishda o'zlashtirishni yuqori ko'tarish, o'quv jarayonida qiziqtirishni, o'quv materialini tushunishni yaxshilashni, funksional savodxonlikni shakllantirishni, loyihali savodxonlikni, nazariy tafakkurni, ekologik va iqtisodiy tafakkurni, kommunikativlikni, ijtimoiy faollikni, fuqarolik ongini, o'z-o'zini anglash va boshqa vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan edi.

Hozirda boshqa faoliyat sohalari, jumladan, ishlab chiqarish rivojlanishining innovatsion yo'lga o'tgach, ta'lim sohasi ularga faqat yetakchilarni tayyorlash funksiyasini bajaradi. Lekin aslida esa boshqacha ko'rinish ko'zga tashlanadi. Ilgari jamiyat uchun uncha ko'p bo'lmagan va mustaqil shakllangan innovatorlar yetarli edi. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim texnologiyalari uchun innovatorlar faqat pedagoglar edi va ularning innovatsiyalari o'quvchilarda zaruriy sifatlarni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion tafakkur va qobiliyatni innovatsion faoliyatiga yo'naltirishga e'tibor qaratilmagan. Bildirilgan fikrlar "innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "innovatsion ta'lim" tushunchalarini quyidagi tarzda ajratib, alohida qarab chiqishni talab etadi:

- innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlari ;
- bu barcha ta'lim texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagog innovatsion faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim-bu shunday innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlariki, unda pedagog innovatsion faoliyati natijasi bo'lib, o'qitilayotganlar innovatsion g'oyalarini yaratuvchisi (generatsiya) hisoblanadi. Bu o'rinda masalaning dolzarbligi mavjud "mono"innovatsion ta'lim texnologiyalarini "bi"-innovatsion xolatigacha rivojlantirishdan iborat. Bular bir qator chet el o'quvchilari misolida ular tomonidan yaratilgan tajribalar, ixtirolar misolida o'z amaliy isboti bilan tasdiqlangan. Bu o'rinda zamonaviy fan yutuqlari asosida kuchli, talantli tafakkur orqali amalga oshirilishini, ya'ni ixtiroli masalalarni hal etish nazariyasi IMEN yo'li bilan hal etish mumkinligi isbotlangan.

Bir qator rivojlangan mamlakatlar ilmiy laboratoriyalarida (IMEN) IMEN pedagogikaga “bilimlarni ixtiro qilish” deb nomlangan yangi metod yaratildi. IMEN ning integratsiya asoslari eng ko‘p tarqalgan barcha innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda ishlab chiqildi. Buning qo‘shimcha samarasi – turli pedagogik texnologiyalarni amaliy dialektika tilida yozib chiqish imkonini beradi. Dunyodagi global o‘zgarishlar jarayoni, mamlakatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy– madaniy sohalaridagi o‘zgarishlar, ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislariga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi.

An’anaviy pedagogik ta’lim mazmuni va tashkil etishi jihatidan aniq o‘quv fani bo‘yicha mutaxassis o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikdagi an’anaviy tizimda, faoliyatli yondashuv asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayon yotadi va bu jarayonda ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar sub’ekt-ob’ekt tarzida yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda sub’ekt-o‘qituvchi ma’lum chegaralangan sharoitda bo‘lib, uning faoliyatini o‘quv reja va o‘quv dasturi boshqaradi hamda munosabatlar qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ob’ekt-talaba ma’lum darajadagi bilim hajmi bilan chegaralangan.

An’anaviy ta’lim mazmun jihatidan o‘zaro bog‘liq avtonom faoliyat bilan belgilangan: o‘qituvchini o‘qitish faoliyati va talabani o‘quv bilish faoliyati; o‘qiyotgan talaba o‘qituvchi rejasining ijrochisi va boshqaruv ob’ekti bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. An’anaviylikdagi o‘quv jarayonida o‘zaro faoliyat taqlid qilish, imitatsiya, namuna bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish, ijtimoiy va shaxslararo o‘zaro ta’sirning bir xildaligi, tashqi nazorat va natijani baholash, bularning barchasi bilish motivlarini qisqartirish, bilish motivlarini kengayishiga imkon bermaydi.

1990-2000 yillar davomida nazariya va amaliyotda pedagogik ta’limga yangicha yondashuvlar ishlab chiqildi. Amaliy jarayonlar “yuqoridan” va “quyidan” boshlandi. “Yuqoridan” harakat oliy ta’limga yangi o‘quv rejalarini joriy qilinishi bilan boshlanadi. Yangi o‘quv rejalariga ko‘ra oliy ta’lim o‘quv fanlarini kurslar bo‘yicha mustaqil o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunday “demokratik erkinlik” kafedralar va fakultetlar tomonidan o‘zgacha ijodkorlik bilan qabul qilindi va bu “quyidan” bo‘layotgan o‘zgarishlar ko‘plab “pedagog-novator”lar harakatini yuzaga keltirdi. Innovatsion harakatlarni bir nechta jumladan, tashkiliy, mazmunli, metodik ko‘rsatkichlari yuzaga keldi va amaliyotga joriy qilindi. Ushbu xolatlar ko‘plab pedagogika va psixologiya kefedralar yoi‘ilishlarining asosiy masalasi sifatida muhokamaga qo‘yildi hamda davlat o‘quv rejasi, dasturlari asosida har bir oliy o‘quv yurti o‘zlarining ishchi o‘quv reja va ishchi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga kirishildi.

Bu esa joylarda har bir fan o‘qitilishining innovatsion texnologiyalarini joriy etish va qo‘llash uchun imkoniyatlarni berdi.

Innovatsion faoliyatning muhim komponentlari hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. ‘Innovatsion pedagogika’ termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo‘ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini

ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Tadqiqot metodologiyasi

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi o'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar. Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir. Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada 'yangi' tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Tahlillar va natijalar

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

1. Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

2. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati harakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samardorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik, pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogik yangilik dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi. V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;

- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;

- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;

- yangicha harakat qila olishga o'rgatish. Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Ta'lim tizimida innovatsion uslublarni ishlab chiqishning zaruriyati Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta'limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonlarning asosi bo'lib, oxirgi uch, o'n yillikda pedagogik ta'lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo'ldi.

Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo'nalishli ta'lim sohasidagi ishlanmalarni, ta'limni

tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta'limni ko'p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o'z-o'zini faoliyatini yo'lga qo'yadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo'lga qo'yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Agar oliy o'quv yurti "o'qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo'lish maydoni" (D.B.Elkonin) deb qaralsa, u holda ushbu oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta'lim olayotgan talabaning o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o'zini qayta qurish sub'ekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi.

Xulosalar

O'qituvchi faoliyati ham o'zgaradi: "usta" ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi "maslahatchi" pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko'ra integrativ ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib qoladi.

Bundan tashqari oliy ta'limda har bir fanlarni o'qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug'ullanishlari kerak. Pedagogik ta'lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to'xtalish kerakligi e'tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko'p bosqichli va ko'p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta'lim sifatida qaralib, ular o'zlarining jilg'alariga ega bo'lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy holatlar bilan bevosita bog'liq.

Umuman olganda oliy ta'lim tizimida individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to'planganligi hamda o'quv pedagogik jarayoni ishtirokchilari o'rtasida sub'ekt-sub'ekt munosabatlari rivojlanishida o'zgarishlar sodir bo'layotganini kuzatish mumkin. Ushbu tizim orqali talabalarni mustaqil vazifa bajarish ishtiyoqi ortib, reyting tizimida ularning faol ishtiroki ta'minlansa, ikkinchi tomondan pedagoglar tomonidan talabalar faoliyatini boshqarishda metodik madaniyat darajasi o'sib borishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boshlang'ich ta'lim sohasidagi innovatsion jarayonlar" o'quv-uslubiy majmua. Namangan 2021
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti 2015
3. ISMOILOV O.A., NAZAROV SH.Q. TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TOSHKENT – 2012
4. A.Taniyev. "Innovatsion iqtisodiyot". Darsik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 y
5. Байбаева, М. Х., Химматалиев, Д. О., & Маликов, Э. (2015). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ И ПРИЕМОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. ББК 74.200 П 76, 51.
6. Zokirova, D. N. M., Qurbonova, F. Q., & Nishonov, M. M. O. G. L. (2022). NAZARIY ELEKTROTEXNIKA FANI DARS MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION TARBIYA BERISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 371-377.



7. Нажмиддинова, Ё., Абдуллаева, Н., & Давронова, М. Prospects adaptation of graduates professional colleges in manufacturing plants Najmiddinova Yo., Abdullaeva N. 2, Davronova M. 3 (Republic of Uzbekistan) Перспективы адаптации выпускников профессиональных колледжей на производственных предприятиях.
8. Химматалиев, Д. О. (2017). Сущности понятия интеграции, педагогической интеграции при подготовке к профессиональной деятельности будущих учителей профессионального образования. *НАУКА–ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ*, 204.
9. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 179-182.
10. Химматалиев, Д. О. (2019). ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ. In *Непрерывное образование: теория и практика реализации* (pp. 320-323).
11. Химматалиев, Д. О. Tashkent city, Uzbekistan d. ximmataliev@ mail. ru ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ FEATURES OF THE APPLICATION OF MODERN INNOVATIVE.
12. Нажмиддинова, Ё. Р., & Дадамирзаев, М. Г. (2018). Инновационная деятельность в системе профессионального образования. *Экономика и социум*, (6), 784-788.